



SAMARQAND VILOYATI NARPAY TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-may

102-7-98-Q/25

Narpay tumani hokimligi

**Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 3-maydagi “O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va
tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini
ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida” PQ-147-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 142-7-0-Q/25-sonli
qarori to‘g‘risida**

2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari ishini yangicha tizim asosida tashkil etish yuzasidan belgilangan asosiy vazifalarni samarali amalga oshirish, shuningdek, viloyat hududida “halollik vaksinasi” tamoyili asosida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida

QAROR QILAMAN

1. Samarqand viloyati hokimining 2025-yil 3-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-147-son qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 142-7-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Davlat organlari va tashkilotlari, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish; davlat xizmatlarini ko‘rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bekor qilish bo'yicha taklif kiritish; davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik

choralarini ko'rish, davlat xaridlari bo'yicha preventiv o'rganishlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga elektron hisobot taqdim etib borish;

tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash; davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashni imkoni beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;

mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatini shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va odo-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish.

3. Belgilansinki, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari o'z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida esa kuzatuv kengashiga (kuzatuv kengashi mavjud bo'lmagan hollarda korxona rahbariga) bo'ysunishi va uning oldida hisobdor bo'lishi inobatga olinsin.

4. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Boliyev) tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (I.Axmedov)ga tuman hokimligida Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida mas'ul xodim faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-147-sonli qarori talablariga qat'iy amal qilgan holda yo'lga qo'yilishini ta'minlasin.

5. Tuman hokimining ayrim qarorlariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

6. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



Sh.Buranov

Narpay tumani hokimining
2025-yil 7-maydagi
102-7-98-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimining 2021-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyulda “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori hamda shu mazmunda Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 12-iyuldagi 5-7-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida”gi 16-7-98-Q/21-sonli qaroriga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirish.

Qarorning 2-bandi birinchi va ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tashkilotlarda (keyingi o‘rinlarda - davlat organlari va tashkilotlari) ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlarini internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilayotganligi”;

“barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarida hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlarida mavjud shtat birliklari doirasida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi”.